

O‘zbek tili. 2-BSB. Loyiha ishi (30 ball)

9-sinf

Loyiha ishi mavzusi: Zamonaviy kasblarni targ‘ib etuvchi “Transmedia” yaratish.

ESLATMA: O‘quvchilar o‘zlari istagan zamonaviy kasblardan birini tanlab, “Transmedia” yaratishadi. Talabga javob beradigan “Transmedia” ni maktabning ijtimoiy tarmoqlariga joylash yoki ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish mumkin.

MUAMMO:

1. Zamonaviy kasblarga qiziqishning sustligi.
2. Fikrlashda izchillikning oqsashi.
3. Og‘zaki nutqdagi kamchiliklar.

MAQSAD:

O‘quvchilarning zamonaviy kasblarga qiziqishni oshirish, nutqda fikrni tartibga solib ifodalashni rivojlantirish hamda shakllantirish.

Loyiha ishi uchun qo‘yiladigan talablar:

1. “Transmedia” ni adabiy tilda yaratish.
2. Adabiy til me‘yorlarini buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik.
3. “Transmedia” ni yaratishda shaxsi umumlashgan gaplardan unumli foydalanish.

Loyihani amalga oshirish bosqichlari:

- a) “Transmedia” yaratish uchun zamonaviy kasb tanlash;
- b) zamonaviy kasblar haqida ma‘lumotlar bilan tanishish;
- c) zamonaviy kasblarda faoliyat yurituvchi taniqli kishilar faoliyati bilan tanishib chiqish va kuzatish (masalan, Elon Mask, Jeff Bezos, Bill Gates);
- d) “Transmedia” yaratish rejasini tuzish va uni yaratish;
- e) “Transmedia” ni AKT vositalaridan foydalangan holda mukammallashtirish;
- f) taqdim etish (taqdimot uchun noodatij yondashuv talab etiladi).

Rivojlantiriladigan, shakllantiriladigan ko‘nikmalar:

1. Ijodiy va tizimli (izchil) fikrlash.

2. O‘qib tushunish.
3. Tinglab tushunish.
4. Og‘zaki nutq.
5. Yozish (tahrirlash).
6. Tahlil qilish.
7. Noodatiy taqdimotni rejalashtirish.

Loyiha ishining bosqichlari (xarita)

1. Mavzu tanlash.
2. Ma’lumot to‘plash.
3. Xomaki nusxani tayyorlash.
4. Tahrirlash.
5. O‘qituvchi tavsiyasini olish.
6. Qayta tahrirlash.
7. Taqdim etish.

Loyiha ishini baholash mezonlari			Ball	Jami ball
1	Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlarining maqsad bilan uygʻunligi	Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, maqsadga erishish uchun noodatiy yondashilgan hamda maqsadga muvofiq tarzda taqdim etilgan boʻlsa –	5 ball	<u>5 ball</u>
		Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, ammo juzʼiy kamchiliklar sabab maqsaddan biroz ogʻish kuzatilgan boʻlsa –	4-3 ball	
		Loyihaning bajarish bosqichlari (xaritasi)dagi ketma-ketlikka amal qilinmagan, bu holat loyiha maqsadining yoritilishida aks etgan boʻlsa –	2-1 ball	
2	Muammo va yechim	Tanlangan zamonaviy kasb oʻrganilgan, ijtimoiy tarmoqda uning yoritilish darajasi aniqlangan boʻlsa, uni yanada rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan, misollar bilan boyitilgan boʻlsa, oʻquvchi oʻz zaxirasidagi soʻz boyligidan samarali foydalana olgan, shuningdek, adabiy til meʼyorlaridan chetga chiqilmagan boʻlsa.	10-9 ball	<u>10 ball</u>
		Tanlangan zamonaviy kasb oʻrganilgan, ijtimoiy tarmoqda uning yoritilish darajasi aniqlangan boʻlsa, uni yanada rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan, misollar bilan boyitilgan boʻlsa, biroq oʻquvchi oʻz zaxirasidagi soʻz boyligidan samarali foydalana olmagan, shuningdek, adabiy til meʼyorlaridan biroz chetga chiqilgan boʻlsa-	8-5 ball	

		Tanlangan zamonaviy kasb oʻrganilgan, ijtimoiy tarmoqda uning yoritilish darajasi aniqlanmagan boʻlsa, uni yanada rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan, misollar bilan boyitilgan boʻlsa, biroq oʻquvchi oʻz zaxirasidagi soʻz boyligidan samarali foydalana olmagan, shuningdek, adabiy til meʼyorlaridan biroz chetga chiqilgan boʻlsa-	4-1 ball	
3	Jamoa boʻlib ishlash	Jamoa maqsadga erishish uchun bir-birini toʻldirsa, oʻzining hamda sheriklarining vaqtini qadrlasa, navbat bilan soʻzlasa, taqdimotda jamoadoshining fikrini tinglab, qoʻllab-quvvatlasa –	5 ball	5 ball
		Jamoa bir maqsad yoʻlida bir-birini toʻldirsa, oʻzining hamda sheriklarining vaqtini qadrlasa-da, taqdimotda sustkashlikka yoʻl qoʻysa –	4-3 ball	
		Jamoadi tarqoqlik kuzatilsa, barcha oʻz fikrini maʼqullasa va buning natijasi taqdimotda aks etsa –	2-1 ball	
4	Loyiha ishining ahamiyatliligi va xulosa	Taqdimotdan soʻng loyiha ning istiqboldagi natijalarini taxmin qilish, shuningdek, orttirilgan tajribadan foydalanib, xulosa chiqarish, chiqarilgan xulosadan keyingi qadamlarni chamalab koʻrish mumkin boʻlsa –	10–7 ball	10 ball
		Taqdimotdan soʻng loyiha ning istiqboldagi natijalarini taxmin qilish mumkin boʻlsa-da, xulosa chiqarishda aniqlik yetishmasa –	6–2 ball	
		Taqdimotdan soʻng loyiha ning istiqboldagi natijalarini taxmin qilishga ehtiyoj boʻlmasa, jarayon yetarlicha xulosalanmasa –	1-0 ball	
JAMI:				30 ball